

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

## MAGISTRALNI KASBIY VA ILMUY FAOLIYATGA TAYYORLASH AKMEOLOGIYASI

*Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich*

*ChDPU p.f.f.d. (PhD), dotsent v/b.*

*Murodova Ruxshona Muzaffar qizi*

*ChDPU Jismoniy madaniyat XQS 23/Iguruh talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada magistrlarni kasbiy va ilmiy faoliyatga tayyorlash akmeologiyasi bo'yicha ko'rsatma va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Magistr, akmeologiya, metodika, sifat, talaba, kasb, ilm, mexanizm, natija, faoliyat.

Magistrlarni kasbiy va ilmiy faoliyatga tayyorlash akmeologiyasi zamirida kelajak avlodning ilm saviyasi yuqorilashishi kutilayotgan davrda turli bosqichdagi ta'lim maskanlarida ushbu muammoga har doim ham rejali va ilmiy jihatdan yondashish muqarrardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatni rivojlantirishga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.


Jismoniy madaniyat yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish mazkur sohaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish hamda yuksak mahoratga ega bo'lishlari uchun, shuningdek, sohaga oid bilimlar majmuuni hamda ko'nikma va malakalarni egallahshlarida muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizning pedagogika oliy o'quv yurtlarining jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishlarida “O'qituvchilik kasbi” pedagogik omil sifatida yoki “Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish” kabi o'quv kurslari tashkil etilgan bo'lib, endilikda bu jarayon rasmiy tarzda talabalarga mas'ul o'qituvchilar tomonidan ijodiy tadqiqot vazifalari tizimi ishlab chiqish, pedagogik manbalarni o'rganish asosida pedagogik muammolarni hal qilishda tadqiqot usulini o'rgatish kabilarni o'z ichiga oladi.

Aynan Respublikamizdagi eng nufuzli va kundan kunga rivojlanib kelayotgan Chirchiq davlat pedagogika universitetida tashkil etilgan “INDIVIDUAL TA’LIM

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

**DASTURI”** asosida klaster ya`ni (Lider, Regulyator, Kordinator, Moderator, Operator)



tamiyillariga asoslangan mazkur dastur eng zamonaviy va eng samarali usullardan biri desak mubolag`a bol`maydi. Bu dastur zamirida jamiyatda ziyorilar qatlaminig tobora ko`payishi va yuksalishi nazarda tutilgan bo`lib, Respublikamiz ta`lim va kasbiy faoliyati sifatiga juda sezilarli darajada ta`sir etishi, ustoz- shogird tizimining yanada mustahkamlanishining poydevoridir.

Ushbu dastur keng qamrovga ega bo`lib, nafaqat talaba balki, butun yosh izlanuvchi o`qituvchilarni ham o`z ichiga qamrab olganligi, ta`lim va kasbiy soha bo`yicha ijodiy va ijobiyligi bilan juda beqiyosdir. Ta`lim tizimining davlat ta`lim standartlarini ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish jarayonini ilmiy-metodologik tomonlarini yoritish orqali kasb-ta`limda talabalarni ilmiy-ijodiy faoliyatga o`rgatishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini va ta`limni amalga oshirishda standartlarda keltirilgan ilmiy faoliyatga yo`naltirish bosqichlarini amalga oshiradi. Shuning bilan birga dars va darsdan tashqari vaqtarda ilmiy faoliyatga yo`naltirish ijobiy samara beradi, ya`ni dars va darsdan tashqari vaqtarda talabalarni ilmiy faoliyatga yo`naltirish o`ziga xosligi, darsda o`tilayotgan mavzuning ilmiy jihatlari, darsdan tashqari vaqtarda uni olib borish tartiblari o`rgatiladi. Bunda maqsadli va ehtiyojga yo`nalgan hamkorlik shakllari va SMART mezonlari (aniqlik, o`lchamlilik, erishimlilik, resurs bilan ta'minlanganlik, reglament) maqsad belgilash va natijaga mo`ljal olish samaradorligiga erishiladi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlash akmeologiyasi quyidagilardan iborat: salomatlik va jismoniy barkamollik qadriyatlaridan

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

xabardorlikning yuqori darajasi, muntazam jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan ehtiyoj, maxsus bilimlar, jismoniy fazilatlarni rivojlantirish, texnik harakatlarni shakllantirish va jismoniy yutuqlarni ta’minlaydi. Akmeologik ko‘rsatkichlari esa:

- ilmiy va kasbiy g`oyalarning salomatlik darajasi;
- aqliy va jismoniy tayyoragarlik;
- ob’ektiv yoki sub’ektiv yuqori yutuqlar;
- vosita va usullardan ijodiy va ijobiy foydalanishlar kiradi.

Bu Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga maksimal darajada tarbiyalash, takomillashtirish uchun akmeologik metodlar va tamoyillardan unumli foydalanish zaruratini tug‘diradi.

Natijada kognitiv, verifikatsiya, didaktik, diagnostik va aslida akmeologik determinantlar to‘plamini amalga oshirishda jismoniy tarbiya doirasida akmeologik muhit yaratiladi. Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va shakllantirishda ameologik yondashuvning metod va tamoyillari muhim ahamiyatga ega.

Aniqlangan ko‘rsatkichlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish hamda shakllantirishda akmeologik yondashuvning metodik jihatlarini amaliyotga tatbiq etishda mutaxassislarning kasbiy layoqatlarini, kasbiy kometensiylarini rivojlantirish masalasiga alohida e’tiborni qaratish lozim. Shuningdek, Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlash jarayoni murakkab bo‘lib, u bir qator psixologik akmeologik-pedagogik shart-sharoitlar va omillarni talab etadi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlash hamda shakllantirishda amalga oshirilayotgan harakatlar majmui, pedagogik va psixologik, shuningdek, anotomik hamda fiziologik jihatlarni ham bir vaqtning o‘zida qiyoslash imkoniyatini yaratib beradi. Buning natijasida akmeologik yondashuv asosida ilmiy va kasbiy faoliyatining bir maromda kechishini, unda qo‘llanilgan metod, vosita, shakl va tamoyillarni bir butun qolibga solishga imkon beradi.

Klaster yondashuv asosida talabalarni kasbiy va ilmiy faoliyatga tayyorlash akmeologiyasi mexanizmi “**INDIVIDUAL TA’LIM DASTURI**” asosida klaster ya`ni (Lider, Regulyator, Kordinator, Moderator, Operator) talabaning ilmiy va kasbiy faoliyatini kuchaytirish, bajarilgan harakatlarini tahlil qilish, shaxsiy imkoniyatlarini aniqlash va undan samarali foydalanish bilan belgilanadi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlashda albatta uning tamoyillari va metodlarini amaliyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri joriy etish orqali amalga oshiriladi.

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlashda akmeologik yondashuv, harakat faoliyatini o`rganilayotgan ilmiy va kasbiy faoloyatga yo`nalganlikni hosil qiladi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlashda akmeologik yo`naltirilganligi - bu integrativ sifat bo`lib, u o`z ichiga talabaning faolligini va uning vektori asosini aniqlovchi maqsad, motivlar, intilishlar va boshqalarni qamrab oladi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlashda akmeologik yo`nalganlik – ilmiy faoliyat sohasida ham, kasbiy faoliyati sohasida ham maksimal darajada o`z qobiliyatlarini namoyon qilishga, ilg`or rivojlanishga yo`naltiruvchi tavsiyi hisoblanadi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidalash mumkinki, Klaster yondashuv asosida talabalarni kasbiy va ilmiy faoliyatga tayyorlash akmeologiyasi mexanizmi **“INDIVIDUAL TA’LIM DASTURI”**-Professor o`qituvchi va talaba o`rtasidagi interaktiv hamkorlikni va mustaqil-ijodiy munosabatlarni, kasbiy va ilmiy ta’lim mazmunini hamda barkamol shaxs tarbiyasi va uning ijtimoiy aspektlari asosida modernizatsiyalashdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Mahoratli PEDAGOG» jurnali. 2021 yil aprel 4-soni.
2. «ZAMONAVIY TA`LIM» jurnali 2021 №1(98).
3. Shukurlayev J.M. Voleybolga yosh talabalarni tanlashning uslubiy xususiyatlari. ta’lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. № 1. 2020 yil 2 oktyabr.
4. Akramjonovich, Y. I., & Ismailovna, Y. F. (2023). Development and Improvement of The Motor Qualities of Volleyball Players Based on The Educational and Training Process. Journal of Advanced Zoology, 44(S6), 1499-1503.
5. Ilyosovich, M. S. (2023). Improving physical education of students with fatigued health. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(10), 32-35.
6. G’ayratovich, S. S., & Akramjonovich, Y. I. (2023). Development principles of young sportsmen's strength by updated technologies. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(12), 32-34.
7. Dexqonov B.B. (2022). Spiritual Training of Young Athletes. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(04), 144-146.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

8. Akramjonovich, Y. I., Azamovich, A. M., & Ilyasovich, M. S. (2022). Developing human thinking and moving speed through table tennis. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 164-165.
9. Umidovich, A. B. (2022). Legal grounds for the development of the sports industry in uzbekistan. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(11), 46-49.

